

**SARATON KASALLIGINING KELIB CHIQISH SABABLARI,
TURLARI VA ZAMONAVIY YUTUQLARI**

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi
4-kurs talabasi - To'raqulova Dinora*

Annotatsiya: Ushbu maqola saraton kasalligi inson organizmidagi hujayralarning nazoratsiz o'sishi va tarqalishi natijasida yuzaga keladigan jiddiy kasallikdir. Ushbu maqolada saratonning kelib chiqish sabablari, asosiy turlari va zamonaviy davolash usullari tahlil qilinadi. Genetik omillar, ekologik ta'sirlar, hayot tarzi va viruslar saraton rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Saraton turlari orasida ko'krak, o'pka, oshqozon, teri va qorin bo'shlig'i saratoni kabi turlar keng tarqalgan. Zamonaviy davolash usullari, jumladan, immunoterapiya, gen terapiyasi, maqsadli terapiya va sun'iy intellekt yordamida tashxis qo'yish sohasidagi yutuqlar ko'rib chiqiladi. Ushbu izlanishlar saraton kasalligini erta aniqlash va samarali davolash imkoniyatlarini kengaytirmoqda

Аннотация: Данная статья посвящена раку — серьёзному заболеванию, возникающему в результате неконтролируемого роста и распространения клеток в организме человека. В статье рассматриваются причины возникновения рака, его основные типы и современные методы лечения. Генетические факторы, экологические воздействия, образ жизни и вирусы играют важную роль в развитии рака. Среди видов рака широко распространены рак груди, лёгких, желудка, кожи и брюшной полости. Современные методы лечения включают иммунотерапию, генную терапию, таргетную терапию и достижения в области диагностики с использованием искусственного интеллекта. Эти исследования расширяют возможности раннего выявления и эффективного лечения рака.

Annotation: This article is dedicated to cancer—a serious disease that arises from the uncontrolled growth and spread of cells in the human body. The article discusses the causes of cancer, its main types, and modern treatment methods. Genetic factors, environmental influences, lifestyle, and viruses play an important role in the development of cancer. Common types of cancer include breast, lung, stomach, skin, and abdominal cancers. Modern treatment methods include immunotherapy, gene therapy, targeted therapy, and advancements in diagnostics using artificial intelligence. These studies are expanding the possibilities for early detection and effective treatment of cancer.

Kalit so'zlar:saraton, onkologiya, genetik omillar, immunoterapiya, maqsadli terapiya, gen terapiyasi, tashxis, zamonaviy davolash, sun'iy intellekt, saraton turlari

Ключевые слова: рак, онкология, генетические факторы, иммунотерапия, таргетная терапия, генная терапия, диагностика, современные методы лечения, искусственный интеллект, виды рака.


Keywords: cancer, oncology, genetic factors, immunotherapy, targeted therapy, gene therapy, diagnosis, modern treatment methods, artificial intelligence, types of cancer.

SARATON (RAK) KASALLIK— hozirda insoniyatning yetakchi patologiyalar guruhidir. Jahon tibbiyoti amaliyotida kasallikni dastlabki bosqichlarini davolashda muvaffaqiyatga erishildi. Cheklovchi omillar — saratonning preklinik bosqichida muntazam keng ko‘lamli diagnostik tekshiruvlarini tashkil etishning murakkabligi, ba‘zi shakllarining patogenezi tezligining yuqori bo‘lishi. Shu munosabat bilan, aholi o‘rtasida onkologik sergaklikni yaxshilash uchun ta‘lim muhim ahamiyatga ega.

Saraton (rak) — bu tanadagi ichki to‘qimalardan o‘sadigan yomon sifatli o‘sma (shish). Kasallikning bunday nomlanishiga sabab, 90% holatlarida bemorlarda yomn sifatli o‘smalar qisqichbaqa (saraton) qisqichiga o‘xshaydi (rus. рак). Rivojlangan mamlakatlarda barcha o‘limlarning 15-20% saraton kasalligidan kelib chiqadi.

Onkologiya — tibbiyotning yuqori texnologik bo‘limidir. Tashxisdan tortib to reabilitatsiya qilishgacha bo‘lgan tibbiyotni tashkillashtirish bosqichlari logistikasi qancha yuqori bo‘lsa, bemorni tiklanib ketishga bo‘lgan imkoniyati shunchalik yuqori bo‘ladi. Saraton bilan kasallangan bemorlar uchun yuqori darajadagi tibbiy yordam ko‘rsatadigan mamlakatlar ham mavjud (Germaniya, Shveytsariya, Isroil, Amerika Qo‘shma Shtatlari). ijobiy qadamlar qo‘ydi. O‘zbekistonda ham ulkan imkoniyatlar yaratildi. Hozirda rak kasalligi davosi o‘rganilmoqda.

Agar erta yoki kech bosqichda tashxislanishiga keladigan bo‘lsak, yuqorida aytib o‘tilganlardan tashqari, dastlabki bosqichlarda tiklanish istiqbollari ancha yuqori.



Bugungi kunda o‘pka saratoni bilan bog‘liq barcha holatlarning 80% chekish

bilan bog'liq va faqatgina 10% radon va boshqa omillar ta'sirida yuzaga keladi. Har yili saratondan 600 ming kishi vafot etadi!

95% hollarda saraton yomon atrof-muhit va hayot tarzi tufayli yuzaga keladi.

Saraton kasalligining kelib chiqish sabablari:

Shirinlik iste'mol qilish: shakarni keragidan ortiq iste'mol qilish ko'krak bezi saratoni paydo bo'lish xavfining oshishiga sababchi bo'ladi. G'arbiy yarim shar aholisi har kuni iste'mol qiladigan miqdordagi shakar sichqonlarga berilganda tez orada ko'krak bezi saratoniga moyillik oshgani aniqlangan. Olimlar shakardan voz kechib, uning o'rniga tabiiy shirin mevalar yeyishni tavsiya qiladi.

Issiq ichimliklar: Xalqaro onkologiya jurnalida e'lon qilingan tadqiqot natijalariga ko'ra, doimiy ravishda issiq qahva, choy ichish qizilo'ngach saratonini keltirib chiqarishi aniqlangan. Issiq suyuqlik ichganda qizilo'ngach devorlarining doimiy ravishda zo'riqishi xavfli hujayralarning rivojlanishiga olib keladi.

Kechasi ishslash: Tunda ishslash va saraton o'rtasidagi bog'liqlikka asoslangan tadqiqotlar hali ko'p emas, lekin mavjudlari buni tasdiqlaydi. Olimlarning taxmin qilishicha, bunday ish rejimi immunitetni susaytiradi va yallig'lanishni rivojlantiradi.

Ortiqcha vazn to'plash: qcha vazn nafaqat qizilo'ngach, balki oshqozon osti bezi, ichaklar, buyraklar, qalqonsimon bez va sut bezi saratoniga sabab bo'lishi mumkin.

Polivitamin va biologik aktiv qo'shimchalar:

Aslida Polivitamin va biologik aktiv qo'shimchalar, ozuqa moddalari, mikroelementlar yetishmaganda mutaxassis ko'rsatmasiga binoan iste'mol qilinishi kerak. Lekin ko'pchilik bilar-bilmas, o'zboshimchalik bilan ularni iste'mol qiladi va turli salbiy oqibatlarga olib keladi.

Tamaki chekish — 30% patologiyalar;

Oziq-ovqat — 35% patologiya;

Infektsiya — 10%;

Kasb bilan bog'liq kantserogenlar — 5%;

Ionlashtiruvchi va ultrabinafsha nurlanish — 6%;

Alkogolizm — 2%;

Ifloslangan havo — 1%;

1.Bu eng keng tarqalgan saraton turi bo'lib, epitelial to'qimalardan (teri, ichki organlar va bezlar sirtini qoplovchi hujayralar) kelib chiqadi.

Ko'krak bezi saratoni

O'pka saratoni

Prostata (erkak bezlari) saratoni

Ichak va oshqozon saratoni

Teri saratoni (bazal hujayrali, skvamoza hujayrali va melanoma)

2. Sarkoma

Bu tur mushak, suyak, yog‘, qon tomirlari va boshqa biriktiruvchi to‘qimalardan rivojlanadi.

Osteosarkoma (suyak saratoni)

Liposarkoma (yog‘ to‘qimalari saratoni)

Angiosarkoma (qon tomirlari saratoni)

3. Leykemiya

Bu qon va suyak iligi hujayralarining saratonidir. Leykemiya organizmning qizil qon tanachalari, oq qon tanachalari va trombotsitlarga ta’sir qiladi.

O‘tkir limfoblastik leykemiya (ALL)

O‘tkir mieloid leykemiya (AML)

Surunkali limfotsitar leykemiya (CLL)

Surunkali mieloid leykemiya (CML)

4. Limfoma

Bu limfa tizimining (immun tizimining bir qismi) saratoni.

Xodjkin limfomasi

No-Xodjkin limfomasi

Zamonaviy davolash usullari:

Radiatsiya bilan davolash deb ham nomlanadi, bu jarayonda saraton hujayralari va to‘qimalariga yuqori energiyali gamma nurlari ta’sir qilish uchun yaratilgan mashina yordamida amalga oshiriladi. Agar radiatsiya terapiyasi to‘g’ri bajarilmasa, bu sog’lom to‘qimalarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu usul odatda saraton kasalligini samarali davolash uchun boshqalar bilan birgalikda qo’llaniladi. Bunday radiatsiya terapiyasining turlaridan biri Tomoterapiya. Shuningdek, bu kompyuter tomografiyasining bir shakli bo‘lib, bemorning ta’sirlangan hududiga qaratilgan aylanadigan tayanchdan nur chiqariladi. Jarrohlik bo’lsa ham, kemoterapi va radiatsiya saraton kasalligida keng qo’llaniladigan usullar bo‘lib, texnologiyaning rivojlanishi bilan bu halokatli kasallik bilan kurashish uchun bir xil samarali alternativ saraton davolash usullari mavjud. Ular:

Gen terapiyasi - Bu saraton hujayralarini olib tashlash uchun shikastlangan genlarni asl nusxasi bilan almashtirishga qaratilgan. Bu juda yangi usul bo‘lib, u faqat bir nechta muhim holatlarda amalga oshiriladi.

Gormon terapiyasi -Bu usul gormon ishlab chiqarishga va uning gormon ishlab chiqarishni o’zgartiradigan va saraton hujayralarini o’ldiradigan saraton hujayralarining o’sishi bilan bog’lanishiga qaratilgan.

Immunoterapi - U tananing immunitet tizimini kuchaytirishga qaratilgan, shunda antikorlar saraton hujayralariga qarshi kurashadi va kuchaytirilgan immunitet tizimi yordamida ularni yo‘q qiladi.

Ildiz hujayra transplantatsiyasi - Ushbu usul suyak iligi ildiz hujayralariga zarar etkazishga moyil bo’lgan keng qamrovli kimyoterapiyani qo’llash paytida saraton

kasalligini davolash uchun birgalikda ishlatilishi mumkin. Ushbu transplantatsiya vena ichiga tomchilab yuborish orqali amalga oshiriladi, bu esa o'z navbatida kuchli foydalanish yoki yuqori dozali kimyoterapiya tufayli vayron bo'lishi mumkin bo'lgan sog'lom ildiz hujayralarini almashtiradi.

XULOSA: Saratonning samarali davosi erta tashxis va muntazam profilaktika choralariga bog'liq. Shuningdek, sog'lom turmush tarzini olib borish, zararli odatlardan voz kechish va muntazam tibbiy ko'riklardan o'tish muhim ahamiyatga ega.Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijasida saratonni aniqlash va davolash usullari takomillashib bormoqda, bu esa bemorlarning hayot sifati va yashash davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Onkologiya" – Muallif: Jo'raev M.D.
2. "Hamshiralik ishida onkologik bemorlarni parvarishlash" – Muallif: Fazliyev M.Sh.
3. "Ichki kasalliklar" – Mualliflar: Y. Arslonov, T. Nazarov.
4. "Saraton kasalligini yengishga yordam beradigan eng so'nggi muolajalar"
5. "Saraton immunoterapiyasi: Kasallik bilan kurashmang, immunitet ustida ishlang"
6. "Patologik anatomiya" .Abdullaxo'jayeva
7. "Ichki kasalliklar" A.Gadayev